

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI

5141100 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi
bitiruvchisi Saparov Urinbasarning
«O‘zbek va qoraqalpoq tillarida o‘zlashma qatlam»
mavzusidagi

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Nukus - 2011

Malakaviy bitiruv ishi O‘zbek tilshunosligi kafedrası yig‘ilishining 2011- yil «___» _____dagi №__ bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.

Fakultet dekani:

f.f.n., dots. K.Tashanov

Kafedra mudiri:

p.f.n., dots. Sh.Yuldasheva

Ilmiy rahbar:

katta o‘qituvchi S.Jalilov

Saparov Urinbasarning «O‘zbek va qoraqalpoq tillarida o‘zlashma qatlam» mavzusidagi malakaviy-bitiruv ishiga Davlat attestatsiya komissiyasining qarori bilan «____» ball («___%») qo‘yildi.

«___» _____ 2011-yil

DAK kotibasi:

Bekchanova S.

Mundarija

Kirish.....

I BOB. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....

1.1. O‘zbek va qoraqalpoq tillari leksikasining tadqiq
qilinishi.....

1.2. O‘zbek va qoraqalpoq tillari leksik qatlamlaridagi o‘zlashmalar

1.2.1. Fors-tojikcha o‘zlashmalar.....

1.2.2. Arabcha o‘zlashmalar.....

1.2.3. Rus tili orqali kirib kelgano‘zlashmalar.....

II BOB. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI TERMINLARIDA O‘ZLASHMALAR.....

2.1. O‘zbek va qoraqalpoq tillari terminologiyasining o‘ziga xos
xususiyatlari.....

2.2. O‘zbek va qoraqalpoq tillari o‘zlashmalaridagi farqlar.....

Xulosa.....

Adabiyotlar.....

Kirish

XX asr tilshunosligiga nazar tashlansa, rus va turkiy tillarni qiyosiy o'rganish masalalariga katta e'tibor berilganligini ko'rish mumkin. Biroq qardosh tillarning fonetik, grammatik, sintaktik, leksik xususiyatlarini qiyosiy tadqiq etish borasida monografik rejada deyarli ish qilinmagan, desak xato qilmagan bo'lamiz. To'g'ri, bu borada yuzaga kelgan umumiy xarakterdagi ishlardan ko'z yumolmaymiz. Jumladan, A.M. Shcherbakning "Sravnitel'naya fonetika tyurkskix yazikov"¹, K.M. Musaevning «Leksika tyurkskix yazikov v sravnitel'nom osvihenie», «Leksikologiya tyurkskix yazikov»² nomli tadqiqotlari turkiy tillarning umumiy rejada qiyosiy o'rganish borasidagi muhim ishlardan sanaladi.

Muayyan ikki va undan ortiq qardosh tillar materiallarini qiyosiy tahlil etish masalasi hanuzgacha echimini kutmoqda. Vaholanki, qardosh tillarni mana shu nuqtayi nazardan o'rganish, ularning qardoshligini belgilash, tillarning paydo bo'lishidagi umumiy jihatlarni aniqlashda katta rol o'ynaydi. Muhimi shundaki, qardosh tillar materiallarini qiyosiy tahlil qilish tillar o'rtasidagi mushtaraklik hamda o'zgachaliklarni aniqlash imkonini tug'diradi: bu esa muhim amaliy metodik ahamiyat kasb etadi. Chunki tillar o'rtasidagi o'zgachaliklarni bilish lisoniy interferentsiyani engib o'tish, ya'niy tillarni oson o'zlashtirish imkonini yaratadi. Bunday ishlarni tarjimachilik qonuniyatlarini lingvistik asoslashga xizmat qila olishini ham unutmaslik kerak.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, B.Karimov va Sh.Mutalovlarning "... hozirgi davrda shakllanib bo'lgan turkiy millatlar faqat erkin umumiy faoliyat natijasida yotsiramay, borgan sari yaqinlashishi mumkin, chunki, bizlarning turkiy tilimizni,

¹ Sherbak A.M. Sravnitel'naya fonetika tyurkskix yazikov. – Leningrad, 1970.

madaniyatimizni, ma'naviyatimizni, dunyomizni rivojlanitirish kabi ko'plab fundamental umumiy maqsadlarimiz va porloq istiqbollarimiz bor"³, - degan fikrlari masalaning mohiyatini to'laroq ochib berishga xizmat qiladi. Bayon qilinganlar ishimizning dolzarbligidan darak beradi.

Ishimizning tadqiqot obyekti qilib har ikkala tilda nashr qilingan ilmiy, tarixiy-badiiy asarlar, turli hujjatlar tili tanlandi. Ayni shunday yo'l tanlashimizdan maqsad o'tgan asrning boshlarida qator turkiy tillar tez rivojlana boshladi. Shu sababli tillarda, xususan, ularning leksikasida fan va texnika, iqsodiyot, ijtimoiy siyosiy va hokazo sohalarda ko'plab yangiliklar paydo bo'ldi. Bularning barchasi maxsus so'zva terminlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. "Shuning uchun turkiy adabiy tillarning hozirgi terminologiyasi muammolarini ishlab chiqish hamda terminlarga ilmiy va ijtimoiy nuqtayi nazardan baho berish nafaqat nazariy bilim jihatidan, balki amliy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi, terminologik ishlarni yanada takomillashtirishga imkon tug'diradi"⁴

Fikrimizcha, o'zbek va qoraqalpoq tillari leksikasini qiyosiy jihatdan o'rganish mana shu maqsadni amalga oshirish ishiga hissa bo'lib qo'shiladi.

To'g'ri, o'zbek va qoraqalpoq tillari bir til oilasiga, turkiy tillarga mansub. Bu xalqlar o'rtasida hududiy chegara yo'q, bitta mustaqil respublikasida yashashadi. Lisoniy materiallar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, ayniqsa, har ikkala til leksikasida mushtarakliklar ham, o'zgachaliklar ham mavjud.

Bitiruv malakaviy ishimishda qiyosiy-tipologik metoddan foydalanildi.

² Musayev K.M. Leksika tyurskix yazikov v sravnitel'nom osveshenie. – Moskva. 1975. Leksikologiya tyurskix yazikov. – Moskva 1984.

³ Karimov B. Mutalov Sh. O'rta turk tili – Toshkent: Mehnat, 1992 15-bet

⁴ Musaev K.M. Leksikologiya tyurkskix yazo'kov – s 6.

Qayd etish lozimki, 1989 yili oktyabrda o'zbek, 1990 yili dekabr oyida esa qoraqalpoq tili davlat tili haqida qonunga ega bo'ldi. Shuningdek, yana bir olamshumul voqeani qayd etib o'tish o'rinlidir. 1991- yili 31-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi sobiq ittifoq respublikalari ichida birinchilardan bo'lib o'z mustaqilligini e'lon qildi. Qoraqalpog'iston esa suveren respublika sifatida O'zbekistonning tarkibiy qismini tashkil qiladi. Bu muhim dalillar har ikkala til o'rtasida qadimdan qaror topib, kelgan lisoniy informatsiya almashish jarayonini yanada keng miqiyosda rivojlantirishdan iborat muhim vazifani ko'ndalang qildi. Pirovardida, hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan sohalar bo'yicha yuzaga kelayotgan lisoniy materiallarni o'zbek tilidan qoraqalpoq tiliga va, aksincha, qoraqalpoq tilidan O'zbek tiliga tarjima qilish zarurati yuzaga kelmoqda. Ayniqsa, bu jarayonda ijtimoiy-siyosiy hujjatlar va adabiyotlarni tarjima qilish masalalari muhim rol o'ynaydi. Zero, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonunida O'zbekistonda o'zbek xalqining ilm-fan tilini takomillashtirish uchun O'zbek tilida ilmiy-texnik hamda ijtimoiy-siyosiy atamalarni yaratish, ijtimoiy, iqtisodiy, tarixiy, adabiy-badiiy, madaniy va ilmiy merosini keng targ'ib qilish va chuqur o'rganish zarurligi qayd etilgan. Qonunning ayni shu bandi Qoraqalpog'iston Respublikasining Davlat tili haqidagi qonunida ham o'zifodasini topgan.

Shunga ko'ra, o'zbek va qoraqalpoq tillari leksik qatlamlarini qiyosiy rejada o'rganishning ahamiyati oshdi va oshaveradi.

Ishimiz natijalaridan o'zbek va qoraqalpoq tillari leksikologiyasni o'rganishda, amaliy va mustaqil ishlarni, kurs ishlarini bajarishda material sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, xulosa va adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI LEKSIKASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

1.1. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI LEKSIKASINING TADQIQ QILINISHI

O‘zbektilshunosligida ham leksika tadqiqiga bag‘ishlangan qator ishlar yuzaga keldi. Bu yo‘lda dastlabki qadam F.Kamol⁵, Ya. Pinxasovlar⁶ tomonidan qo‘yilgan edi. Shu bilan birga, O‘zbek tili leksikasi masalalari “Hozirgi zamon O‘zbek tili”⁷, “Hozirgi o‘zbekadabiy tili”⁸ kabi grammatik tadqiqotlar va darsliklarda ham o‘zifodasini topgan. 1981- yilda O‘zFA til va adabiyot institutining bir guruh tilshunos olimlari tomonidan “O‘zbek tili leksikologiyasi”⁹ nomli yirik ish maydoniga keldi.

O‘zbektilshunosligida ona tili leksikasining o‘rganishga bag‘ishlangan ayrim monografiyalar chop etildi. Bu o‘rinda E.Begmatov¹⁰ va B.Bafoevlarning¹¹ monografiyalarni ko‘zda tutamiz.

Alohida o‘qtirib o‘tishni lozim deb hisoblaymiz: Qoraqalpoq tilshunosligida ham leksikani tadqiq qilish borasida munosib ishlar amalga oshirildi. N.A. Baskakovning “Sostav leksiki karakalpaksogo yazıka i struktura slova”¹² nomli lirik maqolasi maydonga keldi. Keyinchalik esa e.Berdimuratov qalamiga mansub “Ha‘zirgi zaman qaraqalpaq tili leksikologiyasi”¹³ H.Hamidovning

⁵ Kamol F. O‘zbektili leksikasi. – Toshkent, 1953

⁶ Pinxasov Ya. Hozirgi zamon o‘zbek tili leksikasi. – Toshkent 1960

⁷ Tursinov U., Muxtarov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o‘zbek tili (morfologiya, leksika). –Toshkent, 1971.

⁸ Shoabdurahmanov Sh., Asqarov M., Xojiev A., Rasulov I., Daniyarov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent 1980.

⁹ O‘zbektili leksikologiyasi. –Toshkent, 1981.

¹⁰ Begmatov E. Hozirgi o‘zbek tilining leksik qatlamlari. –Toshkent, 1985.

¹¹ Bofoev B. Novoiy asarlari leksikasi. –Toshkent, 1983.

¹² Baskakov N.A. Sostav leksiki karakalpaksogo yazıka i struktura slova // Issledovaniya po sravnitel'noy grammatiki tyurkskix yazıkov. -Moskva, 1962.

¹³ Berdimuratov e. Hozirgi zaman qaraqalpaq tilinin leksikologiyasi. -Nokis, 1968.

“Ha’zirgi zaman qaraqalpaq tili tariyxınyıng ocherkleri”¹⁴ nomli tadqiqotlari nashr qilindi.

Biroq turkiy tillar materiallari asosida qiyosiy-chog`ishtirish rejasida qilingan ishlar etarli emasday tuyuladi. Shunga qaramay, keyingi paytlarda turkiy tillar leksikasini qiyosiy rejada o`rganish masalasiga e`tibor berila boshlanganini ko`rish mumkin. Yuqorida qayd etganimiz K.Musaevning tadqiqotlari, shuningdek, B.Serebrennikov va N.Gadjievalarning¹⁵ monografiyalari ana shunday ishlar jumalasidandir.

Tyurkolog olim K.Musaevning e`tirof etishicha, «... hozirgi bosqichda turkologiyaning rivojlanishida, umuman turkiy tillar leksikologiyasini ishlash borasida qoloqlik yuz bermoqda; ayniqsa, fonetik, morfologik va sintaktik muammolarni ishlab chiqishga qaraganda qiyosiy ham tarixiy leksiklogiyani tadqiq qilish ancha orqada qolmoqda »¹⁶

Ma`lumki, turkiy tillar leksikasini boyitish asosan ichki resurslardan foydalangan holda so`zyasash usulidan va boshqa tillardan leksemalar o`zlashtirish hisobiga amalga oshiriladi. So`zyasash mohiyati va uning xilma-xil usullari (sintetik, analitik, leksik), o`zlashtirmalarning ahamiyatiga etarli baho bera olish va ulardan chiqadigan umumlashmalar bo`yicha nazariy va amaliy xulosalar chiqarishga imkon tug`diradi.

Shu jihatdan qaraganda, ayrim tillar leksikasini o`rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq nafaqat qardosh bo`lmagan tillar, balki qardosh tillar leksikasini ham tarixiy va qiyosiy-chog`ishtirma rejada tadqiq qilish o`ziga xos ahamiyatga egadir.

Shu nuqtayi nazardan qaraganda, turkiyshunoslikda u yoki bu leksik qatlamni qiyosan o`rganish muammolari ancha ilgari

¹⁴ Xamidov X. Qaraqalpaq tili tariyxinin ocherkleri. -Nokis, 1972.

¹⁵ Serebrennikov B., Gadjieva N. Sravnitel`no-istoricheskaya gramatika tyurkskix yazo`kov. Baku, 1979; Sravnitel`no-istoricheskaya grammatika tyurkskix yazo`kov.-Moskva, 1986.

boshlanganini va u yoki bu darajada davom ettirilayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada I. Ismoilovning 1966- yilda nashr ettirgan monografiyasi muhim ishlardan biri sanaladi.¹⁷ Muhimi shundaki, mazkur ishda O‘zbek va uyg‘ur tillardagi “qon-qarindoshlik terminlari” (ota, ona, aka, tog‘a, xola, bo‘la, buvi, amma, nabira), “nikohdan keyin paydo bo‘lgan qarindoshlik terminlari” (er, xotin, kuyov, kelin, pochcha, boja, ovsin, qayin ota, qayin ona, quda), nihoyat, “tutingan so‘zi bilan ifodalangan yaqinlik nomlari” (tutingan ota, tutingan ona, tutingan o‘g‘il, tutingan opa, tutingan aka-uka) ning bir-biridan farqi, o‘xshash jihatlari, bunday terminlarning paydo bo‘lishi va amalda qo‘llanish me‘yorlari atroflicha tahlil etilgan. Muallifning o‘zi qayd etganidek, “O‘zbek va uyg‘ur tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarning bir-biridan farqi, shuningdek, ularning tarixiy taraqqiyoti, shevalardagi ko‘rinishi to‘g‘risida fikr yuritiladi. Bu tillardagi umumturkiy birlik va har bir tilning o‘ziga xos xususiyatlari, bir-biridan farqlari tahlil etiladi”. Shunga ko‘ra, monografiya nashr etilgan davr taqozosi bilan bo‘lsa kerak, ishda ayrim nuqsonlarga ham yo‘l qo‘yilganiga ko‘zga tashlanadi. Bizningcha, ish “Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari” deb atalgan ekan, unda ozarbayjon, tatar, boshqirt, yoqut (hozir saxa deb atalmoqda) kabi turkiy tillardagi dalillarga ham murojaat etish lozim edi. Gap shundaki, ishda qavm-qarindoshlikka oid tushunchalarni ifodalashda, asosan, “termin” leksemasidan foydalanilgan. Ayni shu pozitsiya to‘g‘ri bo‘lgani holda, ishda mazkur tushuncha “nom”, “so‘z” kabilar bilan ham ifodalangan. Bu yo‘lni to‘g‘ri deb bo‘lmaydi albatta.

Muhim dalil sifatida shuni alohida ta‘kidlab o‘tamizki, keyingi yillarda turkiy tillarning ayrim leksik qatlamlarini qiyosiy yo‘sinda

¹⁶ Musaev K.M. Leksiklogiya tyurkskix yazo‘kov.- S. 3.

¹⁷ Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari.-Toshkent, 1966.

o'rganishga bag'ishlangan yana bir nechta monografiya yuzaga keldi. Shulardan biri "O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasining taraqqiyoti"¹⁸ deb nomlanadi. D.X.Bazarova va K.Sharipovalar tomonidan yozilgan monografiyada Markaziy Osiyo hududidagi turkiy tillar va ularning ayrim shevalarda qo'llanilgan zoologik terminlar, jumladan, otlar, tuyoqli yovvoyi hayvonlar, ushoq mollar, qoramollar, cho'chqalar va ular bilan aloqador o'nlab leksemalar tadqiqot obyekti qilib olingan. Muhimi shundaki, bunday terminlarning o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, uyg'ur tillarida qo'llanish doirasi, leksik- semantik xususiyatlari yetarli dalillar asosida isbotlab berilgan. Biroq, yana ta'kidlaymiz, ishning nomi dabdabali, ya'ni keng qamrovli ekanligidan ko'zyuma olmaymiz. Chunki ishda faqat qayd etilgan obyektlarning terminlari tahlil qilingani holda, uni "O'rta Osiyo va Qozog'istondagi turkiy tillar leksikasining taraqqiyoti" deb nomlashni to'g'ri, deb ayta olmaymiz. Shuningdek, mazkur ishda "termin", "so'z" (slovo), "nom" (nazvanie) kabi leksemalar aralash holda ishlatilaverganini ham ko'rsatib o'tishni lozim, deb hisoblaymiz. Shunga qaramay, mazkur ish ham turkiy tillar leksikasini o'rganish muammolariga bag'ishlangan muhim monografiya sifatida o'ziga xos o'ringa ega (o'rni kelganda shuni aytib o'tish joizki, tilshunos olimlar R.Doniyorov va A.Qosimovlar mazkur ishning yutuq va kamchiliklari haqida o'z fikrlarini bildirishgan ¹⁹).

1990- yili I.Ismoilov, K.Meliev, M.Saparovlar tomonidan "O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillar leksikasidan tadqiqot"²⁰ nomli

¹⁸ Qarang: O'TA.-Toshkent, 1992.-№2.-B. 58-60.

¹⁹ . Ismailov I., Meliev K., Saparov M. O'rta Osiyo va Qozog'iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot. –T.: 1990.

²⁰ Mirzayev M. Sovetsko – internatsional'nie slova v uzbekskoy periodicheskoy pechati (1945-1950): Avto ref. dis ... kand. filol. nauk. – Tashkent, 1951; Jamolxonov.X.A. O'zbekbotanika terminologiyasining tarkib topishi va rivojlanishi tarixidan: filol. fan. kand.diss avtoref. – Toshkent. -1969. Daniyarov R. Texnicheskaya terminologiya uzbekskogo yazika na sovremennom etape: Avtoref. dis..... dok. filol. nauk . – Tashkent. 1988.

monografiya maydonga keldi. Ushbu tadqiqot ham turkiy tillar leksikasini qiyosiy rejada tahlil qilishga bag'ishlangan muhim ishlardan biridir. Unda "O'rta Osiyo va Qozog'iston hududlaridagi turkiy tillar so'zboyligining maxsus atamaları - uy-ro'zg'or buyumlari, mevali daraxt va poliz ekinlari nomlari qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritilgan. Tadqiqotda regiondagi turkiy tillarning so'zboyligi, sohalar leksikasi, ularning shakllanishi, taraqqiyoti va o'zbek, uyg'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq hamda turkman tillarining o'zaro munosabati, ularning bir-biriga ijobiy ta'siri" kabi jihatlar etarli dalillar orqali atroflicha yoritilgan.

O'zbek terminologiyasida o'tgan asrning 50-yillaridan keyin qator ilmiy ishlar amalga oshirilganligi, ya'ni nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari yoqlanganligi, monografiyalar va risolalar chop etilganligi, yuzlab maqolalar e'lon qilinganligi ma'lum²¹. Shuningdek, Qoraqalpoq tilshunosligida ham mazkur tilning u yoki bu leksik qatlamlarni o'rganishga bag'ishlangan qator ishlar yuzaga keldi. O'zbek va qoraqalpoq tillarida mavjud bo'lgan ishlarning barchasiga munosabat bildirib o'tish niyatimiz yo'q, albatta.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi monografik tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Lekin ayni shu sohaning maxsus terminologik lug'ati 1976- yildayoq nashr etilgan edi. 1992- yilda H.Dadaboevning "XI-XIV asrlar turkiy tillar yozma yodgorliklaridagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial iqtisodiy terminologiya"²² nomli monografiyasi maydonga keldi. Ishda O'zbek tilidagi, binobarin, turkiy tillardagi ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlarini o'rganishga bag'ishlangan bu jiddiy ishda turkiy tillarning shakllanishida o'zining muhim rolini

²¹ Dadaboyev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsial'no-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pis'mennix pamyatnikax XI-XIU vv.: Avto ref. dis.... dokt.filol.nauk.- Tashkent,1992.

²² Pirniyazova A. Puti razvitiya i formirovaniya obshestvenno-politicheskoy leksiki v sovremennom karakalpakskom yazike: Avtoref.dis... kand. filol.nauk. -Tashkent, 1986.

o'ynagan ko'rsatilgan sohalar terminlarining paydo bo'lish va tilda qo'llanish mummulari atroflicha o'rganilgan.

Shu bilan birgalikda ijtimoiy-siyosiy hamda sotsial-iqtisodiy terminlarning paydo bo'lish tarixiga, ularning yasaliish qonuniyatlariga hamda boshqa tillardan o'zlashtirilgan terminlar hisobiga boyishi masalalariga alohida e'tibor berilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida ham bir qator leksik qatlamlar tadqiq qilinganligini ko'rish mumkin. Bu o'rinda A.Pirniyazovanning "Hozirgi qoraqalpoq tilida ijtimoiy-siyosiy leksikaning shakllanish va rivojlanish yo'llari"²³ nomli nomzodlik ishi maydonga keldi.

Haqiqatan ham, mazkur dissertatsiya muhim mavzuga bag'ishlangan. Unda qoraqalpoq tilida ijtimoiy-siyosiy terminlarning paydo bo'lish tarixi va keyingi rivoji haqida muhim fikrlar bildirilgan. Jumladan, ishda ijtimoiy-siyosiy terminlarning qoraqalpoq adabiy tili taraqqiyoti bilan birga rivojlanib borish yo'llari tahlil etilgan.

A.Pirniyazovanning qayd etishicha, dastlab og'zaki nutqda qo'llab kelingan ijtimoiy-siyosiy terminlar yozma nutq shaklida mustahkamlanib bordi. Shundan so'ng muallif ijtimoiy-siyosiy terminlarning qoraqalpoq tilida rivojlanish yo'llarini qo'yidagi davrlarga bo'lib o'rganadi:

Birinchi davr, ya'ni 1917-1940 yillarda qoraqalpoq yozuvini yaratish va uni takomillashtirish, nashriyot ishlari, gazeta-jurnallarning paydo bo'la boshlashi munosabati bilan yangidan yuzaga kela boshlagan.

Ishdan ma'lum bo'lishicha, va haqiqatan ham ikkinchi davrda (1940-1960) qoraqalpoq tilining alifbosi va imlo qoidalari takomillashtirila boriladi. Qoraqalpoq tilshunosligining ayrim

²³ Pirniyazova A. Puti razvitiya i formirovaniya obshestvenno-politicheskoy leksiki v sovremennom karakalpaxskom yazike: Avtoref. dis... kand. filol. nauk. -Tashkent, 1986.

nazariy masalalari o'rganila boshlaganligi, ayni shu davrda terminologiya masalalariga katta e'tibor berila boshlaganligi alohida uqtirib o'tiladi.

Uchinchi davr (1960 yilidan hozirgi vaqtincha), deb uqtiradi A.Pirniyazova, qoraqalpoq tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining to'liq shakllanganligi va har tomonlama rivojlanganligi bilan ajralib turadi.

A.Pirniyazovanning dissertatsiya ishi qoraqalpoq tilshunosligi, xususan, uning terminologiyasiga qo'shilgan katta hissa deb hisoblaymiz.

Shuni ta'kidlash lozimki, qoraqalpoq tilining ijtimoiy-siyosiy terminlarini o'rganishga bag'ishlangan ayrim ishlar ham mavjuddir. Jumladan, e.Berdimuratov, J.Shamshetov, Q.Qoshanov, X.Jumashev kabi tilshunos olimlarning ko'lamli maqolalari shular jumlasidandir²⁴. Shu bilan birga, qoraqalpoq tili leksikasi va uning ajralmas qismi bo'lgan sohalar terminologiyasi R.esemuratova, Q.Jaksimuratov, Sh.Abdinazimov kabi qator olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida o'zifodasini topgan²⁵.

Ma'lum bo'ldiki, bu ishlar o'zbekiyoxud qoraqalpoq tillarning leksikasini, asosan, sinxronik va qisman diaxronik rejada o'rganishga bag'ishlangandir. Tabiiyki, bu ishlar turkiy tillar leksikasini umumiy rejada tadqiq etish ishiga o'zining munosib hissasini qo'shadi.

²⁴ Berdimuratov E. O terminologii karakalpakskogo yazika // Tyurkskaya leksikologiya i leksikografiya.- M.,1971; Shamshetov J. obshestvennix i publitsisticheskix terminov v karakalpakskom yazike // Vestnik karakalpakskogo filiala AN UzSSR.-1980.-№3. -S. 83-85; Koshanov K.M. Vzaimodeystvie russkogo i karakalpakskix yazikov v oblasti nominativnoy leksiki. -Nukus,1989. S.26-38; Jumashev X. Ana tilim -arim, namisim // Hazirgi qaraqalpaq tili rauajlanuinin ayrim maseleleri. -No'kis,1993.

²⁵ Esemuratova R.Razvitie karakalpakskoy leksiki posle Velikoy Oktyabr'skoy sotsialisticheskoy revolyutsii: Avtoref.dis...kand.filol.nauk.-Nukus,1963; Berdimuratov E.Qaraqalpaq terminologiyasi.-Nokis,1989; Jaksimuratov K. Stanovlenie i razvitie meditsinskoy terminologii v karakalpakskom yazike: Avtoref.dis...kand.filol.nauk.-Tashkent,1991;Abdinazimov Sh.Leksicheskiy sostav eposa «Kirk kiz» («Sorok devushek»): Avtoref.dis...kand.filol.nauk.-Nukus,1992.

Biz esa o'zishimizda qardosh tillar oilasiga mansub O'zbek va qoraqalpoq tillari leksik qatlamlarini qiyoslab o'rganishni maqsad qilib qo'ydik.

Tillarda leksemalarning paydo bo'lish tarixini qadimdan boshlashimiz zarur. Umumturkiy meros bo'lmish O'rxun-enisey va boshqa yodnomalarda o'zifodasini topgan qag'an, budun, baliq ("shahar" ma'nosida), sab ("kengash" ma'nosida), bitikchi ("kotib" ma'nosida), alp ("qahramon" ma'nosida) kabi terminlar buning yaqqol misolidir.

Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi o'zgarishlar, tabiiyki, o'zining leksik qatlamlarida ham o'zifodasini topadi. Bu fikrimizni M.Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi qo'yidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar misolida ham ko'rish mumkin : and, buzun, баж, божун ("jamo'a" ma'nosida), bachug' ("ahd" ma'nosida), beg, жарлуг', бож ("qabila" ma'nosida), жaг'и, bulg'aq ("fitna" ma'nosida), жer ("mamalakat" ma'nosida) va hokazo²⁶. O'sha davr ijtimoiy-siyosiy terminologiyasing muhim xususiyatlaridan biri shundaki, ularning ba'zilari hozirgi kunda ham O'zbek va qoraqalpoq hamda boshqa turkiy tillarda faol qo'llanib kelinmoqda (el-el, boy-bay, ont-ant).

H.Dadaboevning ishiga obyekt qilib olingan XI-XIU asrlar yozma yodgorliklari tilidagi qiyoslash uchun olingan ijtimoiy-siyosiy va sotsial-iqtisodiy terminlardan bugungi kunda uyg'ur tilida - 348, qozoq tilida - 220, qirg'iz tilida - 244, turk tilida - 370, O'zbek tilida esa - 390 tasi ishlatilar ekan²⁷.

Aslini olganda, O'zbek va qoraqalpoq tillarini bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Shunga qaramay, har bir tilning o'ziga xos

²⁶ Bu kabi terminlarning shakllanish tarixi haqida ma'lumot olish uchun H.Dadaboyevning nomi qayd etilgan ishiga qaralsin.

²⁷ Dadaboyev H. Ko'rsatilgan ish.13-b.

rivojlanish qonuniyatlari asosida u yoki bu termin qo'llanaverishi yoki iste'moldan chiqib qolishi mumkin.

Maslan, A.Navoiy va boshqa adiblarimizning asarlarida ishlatilgan *kadxudo, amr, amrkirdor, valiahd, vasiqat, munshiy, muhosara* ("qamal" ma'nosida), *riyosat* ("boshchilik" ma'nosida), *rutba, sarkor* kabi leksemalar, qoraqalpoq xalq dostonlaridagi *datqa, ayemnama, aq alem, bajban, ba'zirgen* ("savdogar" ma'nosida), *biy, jiziya, zindan, qazi, maskapshi* («xon xizmatidagi qul» ma'nosida) kabi ijtimoiy-siyosiy terminlar arxaiklashib qoldi. Lekin ularning ko'pchiligi ijtimoiy-siyosiy hayotimiz tarixiga bag'ishlangan badiiy yoxud ilmiy ommabop asarlarda, gazeta-jurnal va hokazolarda tariximizga bag'ishlangan ilmiy, publitsistik ishlarda bemalol qo'llanishi mumkin. O'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasi, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilidan va evropa tillaridan kirgan o'zlashmalar hisobiga boyiy boshladi.

Bu davrni biz mustamlakachilik davri deb ataymiz. Ammo shunga qaramay, qator xalqlar tillari, jumladan, O'zbek va qoraqalpoq tillari minglab yangi leksik birliklar bilan boyidi. Masalan, *avangard, demokratiya, delegat, spravka, uez (uezd), bo'lis (volost'), chinovnik, kandidat, miting, prezidium, sekretar', arbitraj, deputat, avtonomiya, respublika, oblast', rayon, sud* kabilar shular jumlasidandir.

Tahlil etilgan ishlar leksikaning nazariy asoslari poydevori hisoblanadi. Uning amaliy echimi esa u yoki bu sohaning lug'atlarida o'zifodasini topadi. Shu jihatdan qaraganda, bir guruh o'zbektilshunos-terminshunoslari tomonidan yaratilgan "Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati ²⁸" ning alohida o'rni bor. Lug'atda 22

²⁸ Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati. –Toshkent, 1976.

mingdan ortiqroq ruscha-internatsional terminlarning imkoniyat darajasidagi muqobillari berilgan.

Qoraqalpoq tilshunosligida ham ijtimoiy-siyosiy terminologiya masalalariga alohida e'tibor berila boshlaganligini alohida qayd etmoqchimiz. Buning natijasi o'laroq, D.U.Seytova va boshqalarning "Inglizcha-ruscha-qoraqalpoqcha ijtimoiy-siyosiy terminlar lug'ati"²⁹ maydonga keldi. Mazkur lug'atning muhim xususiyatlaridan biri shundaki, unda matbuot, ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda, radio-televidenie tilida tez-tez ishlatiladigan ijtimoiy-siyosiy terminlarning ingliz, rus va qoraqalpoq tillaridagi muqobillari berilgan. So'zlik qayd etilganidek, faol iste'moldagi ijtimoiy-siyosiy terminologiyaga bag'ishlanganligi bilan xarakterlansa, qolaversa, chet tilini o'rganish ishini va tarjima qilish jarayonini osonlashtirishga yordam berishi so'zsizdir.

Ko'rinadiki, har ikkala tilning leksik qatlamlari ma'lum darajada olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Bu xil ishlarni yanada jonlantirish tilshunoslik oldida turgan dolzarb masalalardandir.

1.2. O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI LEKSIK QATLAMLARIDAGI O'ZLASHMALAR

O'zbek va qoraqalpoq tillari lug'at tarkibining boyishida ichki manba imkoniyatlari muhim resursdir. O'zbek tili lug'at tarkibining taxminan yarmini turkiy so'zlar tashkil qiladi, qolgan qismi esa o'zlashmalarga to'g'ri keladi (qoraqalpoq tilida nisbatan kamroq). Shunga qaramasdan, dunyodagi hech bir til ham faqat o'z ichki resurslarigagina tayanib ish ko'rmaganidek, bu tillar uchun ham faqat o'z so'zlari, o'z qatlam boyligi va imkoniyatlarigina kifoya qilmaydi. Til lug'at tarkibining boyishi va takomillashishida tashqi

manba ham muhim rol o'ynaydi. Umuman, har qanday til sof holda yashay olmaydi. O'zbek va qoraqalpoq tilining lug'at tarkibi o'z taraqqiyotida ikki manbaga tayanadi: a) ichki resurs; b) tashqi resurs.

Tillarning o'zaro aloqasi va hamkorligi, bu tufayli yuzaga keluvchi ikki tillilik bir tildan ikkinchi tilga har xil til elementlarining o'tishiga sababchi bo'ladi. Bir tildan ikkinchi tilga til elementlarining qabul qilinishi, o'tishi o'zlashtirish deb yuritiladi. O'zlashtirish tufayli bir tildan ikkinchisiga o'tgan til elementlari o'zlashmalar deb nomlanadi. O'zlashmalarni tilning qaysi yarusiga tegishliligiga, struktura elementi ekaniga ko'ra, o'zlashma so'zlar yoki leksik o'zlashmalar, fonetik o'zlashmalar, o'zlashma morfema deb yuritiladi.

Tillarning uzoq muddatli aloqasi tufayli bir tildan ikkinchi o'zlashmalar quyidagicha qabul qilinadi:

- 1) so'zlar qabul qilinadi;
- 2) so'zlar tarkibida so'z yasovchi affikslar o'zlashtiriladi;
- 3) ikki tilda o'xshash tovushlar paydo bo'lishi mumkin;
- 4) sintaktik jihatdan bir tipi o'xshash sintaktik konstruktsiyalar tug'iladi;
- 5) leksik, semantik gibrid tipli kal'kalar yuzaga keladi;
- 6) so'zlarning ma'nosida siljishlar (inklinatsiya jarayonlari) paydo bo'ladi va boshqalar.

O'zlashtirish – bir tildan ikkinchi tilga ma'lum til elementlarining ko'chishi, kirishidir. Bunday element, oldin ham qayd qilinganidek, so'zba'zi hollarda tovushlar. Shuningdek o'zlashtirilgan so'ztarkibiga kirgan morfema bo'lishi mumkin. O'zbek tiliga rus, arab, fors-tojik tillaridan anchagina so'zlar

²⁹ Seitova D.U., Pirniyazova A.K., Fayzullaev E.M. Anglichansha-russha-qaraqalpaqsha jamiyetlik-siyasiy atamalar so'zligi.-No'kis, 1992.

o'zlashtirilgan. Fors-tojikcha so'zlar tarkibidan o'zbek tiliga *-kor, -kash, -dor, -gar, -kar, -zoda, -soz, -goh, -gir, -ona, -boz, -noma, -bon, be-, bo-, ba-, no-* singari bir qator elementlar ham kirgan. Bu affikslar qoraqalpoq tiliga biroz fonetik o'zgarishlarga uchrab o'tgan: *ker, -kesh, -dar, -ger, -ka'r, -zada, -baz (-paz), -nama, -ban, biy- na-*.

1.2.1. Forscha – tojikcha o'zlashma so'zlar qatlami

Tadrijiy jihatdan leksema o'zlashtirishdagi eng qadimgi manbalar deb fors, tojik, arab tillari ko'rsatiladi. Rus tilidan leksema o'zlashtirish bularga nisbatan ancha keyingi vaqtlarda sodir bo'la boshlagan¹.

O'zbeklarning ajdodlari eroniy tilda so'zlovchi aholi bilan qadimdan birga yashab kelgan, ular bilan qo'shilgan, aralashgan. Turkiy va eroniy (so'g'd) qabilalar qadimdan territorial yaqin, o'xshash hayot kechirgan iqtisodiy-madaniy aloqada bo'lgan, chet el bosqinchilariga qarshi birgalikda kurashgan.

Forsiy adabiy til arab tilini dastlab she'riyat sohasidan siqib chiqaradi. Bu jarayon XI asrda batamom fors tilining g'alabasi bilan tugallanadi. Forsiy til fan, adabiyot va madaniyat tiliga, rasmiy davlat tiliga aylanadi¹.

O'zbek va tojik tillarining o'zaro aloqasi va ta'siri turli tarixiy davrlarda turlicha sharoitlarda yuzaga kelgan. Bu jarayon O'zbekistonning turli tumanlarida ham turli darajada bo'lgan. Tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri, ayniqsa, o'tmishda kuchli bo'lgan va uzoq davr davom etgan.

¹ U.Tursunov, Sh.Rahmatullayev, V.Reshetov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –T.: 1992. 175-b.

² O'zbektili leksikologiyasi. -Toshkent, «Fan», 1981. 95-bet.

Hozirgi o'zbekadabiy tilidagi tojikcha o'zlashmalar ko'proq konkret va real narsa-hodisalar to'g'risidagi tushunchalarni ifodalovchi so'zlardir. Tojikcha o'zlashmalar kundalik turmush uchun eng zaruriy va seriste'mol so'zlardir. Shu tufayli tojikcha so'zlar O'zbek tilining lug'at tarkibiga allaqachonlar chuqur o'rnashib singib qolgan leksemalardir. Qoraqalpoq tiliga forscha so'zlarning kirib kelishi avvalo, xalq og'zaki ijodi namunalari orqali bo'lsa, ikkinchidan, qoraqalpoq mumtoz shoirlari Kunxoja, Berdaq, Ajiniyoz kabilar ijodi va O'zbek tilining ta'siri orqalidir.

Hozirgi zamon o'zbekadabiy tilida tojikcha o'zlashma so'zlarning tubandagi leksik-semantik guruhlar mavjud:

Real va afsonaviy hayvonlar, parranda va qushlar atamallari: *ajdar, ajdaho, laylak, bulbul, ohu, semurg', to'ti, xumo(y)* va boshqalar. Ayni shu so'zlar ham qoraqalpoq tilida mavjuddir: *aydarha, la'ylek, bylbyl, siymuriq, toti, qumay.*

Odam va hayvon a'zolari atamallari: *bel, kaft, peshona, chehra, mujgan, panja, ruxsor, sina (siyna), chatal (panja)* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *bel, pa'nje, siyne* kabi so'zlar ayrim fonetik o'zgarishlar orqali o'tgan bo'lsa, qolganlari o'tmagan yoki uning umumturkiy varianti mavjud. (alaqan, manglay, jyz, shiray kabi)

O'simlik va daraxtlar, ular tanasining qismlarining atamallari: *anjir, anor, binafsha, barg, tok, tut, novda, olcha, xas, don, gulnor, do'lana, nihol, sho'ra* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *anjir, anar, tut, dan, gylnar, na'lshe, sora.*

Sabzavot va texnika ekinlari, ular mahsuloti atamallari: *no'xat, jo'xori, zira, murch, kanop, zig'ir, karam, nozbo'y* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *juo'eri, zire, burush, kenep, nazbay*

Kasb-hunar, mashg'ulot va u bilan aloqador tushunchalarning atamallari: *juvoz, mardikor, gulchin, kosagul, po'stin, ro'mol, sarkor, sarbon, surmakash, changsoz, cho'pon* va boshqalar.

Qoraqalpoq tilida: *juo`az, ma`rdikar, postin, oramal, sarkor, shopan.*

Oziq-ovqat, ichimliklar atamalari: *boda, bo`za, kabob, yog`, go`sht, zog`ora, shakar gulob, osh, non, sharob, chalpak va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: go`sh, zag`ara, sheker, as, nan, sharap, chelpek.*

Shaxs, inson tushunchasi bilan bog`liq atamalar: *kamina, kaniz, kanizak, hamkor, hamroh, hamshira, janob, jonon* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *ka`nizek, janan* (qolganlari o`tmagan).

Kiyim-kechak, ular qismlari, matolar hamda tikuvchilik, kashtachilikka oid atamalar: *avra, astar, chak, chopon, zarbob, kisa, choyshab, kamar, movut, chit, sarpoch, tasma, charm, shalvar* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *astar, shapan, kise, shit, shalbar, astar, chak, chopon, zarbob, kisa, choyshab, kamar, movut, chit, sarpoch, tasma, charm, shalvar.*

Turarjoy, qurilish va binokorlikka oid atamalar: *ark, ayvon, darvoza, arra, guvala, sinch, g`ov, tokcha, tarnov, xoda, obrez, ohak, koshona, ko`shk, mehrob.* Qoraqalpoq tilida: *ark, ayo`an, daro`aza, tekshe, xada, ha`k, ko`shk, kashana.*

Uy-ruzg`or buyumlari, asbob-uskunalar atamalari: *angushvona, andova, anjom, piyola, chirog`, gilam, korson, tandir, rapida, surmadan, tesha, charx, jihoz* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *a`njam, shira, gilem, tandir, ra`pide.*

Kasallik va o`lim bilan aloqador tushunchalar atamalari: *bemor, betob, bod, dardkash, zarbob, ko`sa, motam, xol, shabko`r, juvonmarg* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *biymar, biytab, da`rdles, ko`se, matam, juo`a`rmek* kabi.

Qarindoshlik, yaqinlik munosabatiga doir atamalar: *birodar, bachcha, bobo, yor, nevara, momo, farzand, padar, dugona, xesh,*

jigargo'sha va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *biradar, baba, yar, nemere, mama, perzent* kabi

Kishilar o'rtasidagi munosabat, yaqinlikni ifodalovchi so'zlar: *yor, do'st, do'stona, nosoz, oshna* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *yar, do's* kabi.

Vaqt tushunchasi bilan bog'liq so'zlar: *gal, zum, dam, palla, payt, doimo, choshgoh, shom, shomgoh* va boshqalar.

Tezlik tushunchasi bilan bog'liq so'zlar: *darrov, darhol, zud, tez, shitob, ohista*. Qoraqalpoq tilida: *da'rrio', tez, a'ste* kabi.

Yil, fasl, kun tushunchasi bilan bog'liq so'zlar: *bahor, navro'z, chilli, nahor, saraton, dushanba, bamdod, xufton* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *ba'ha'r, nao'riz, shille, saratan, duysenbi, quptan*.

Ba'zi konkret narsalar, hodisalar nomi: *bolor (ustun), ganj, zar, pilla, dud, zirih, laktak, atash (olov), surma, to'tiyo*.

Tabiiy hodisalar nomi: *shabada, boda, garmsel, do'l, zah, loy, soya, shabnam, yax, yaxob* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *ziy, ilay, saya* va h.

Tabiatning tabiiy obyektlarining nomi: *zamin, dara, gardun, dasht, lolazor, biyobon, bo'ston, guliston, chaman* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *lalazar, bostan, gylistan, sha'men*.

Kishilar tomonidan yaratilgan belgilangan (sun'iy) makon va joy nomlari: *ombor, bazmgoh, otxona, go'sha, dorixona, kaptarxona, og'il, sardoba* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *atxana, da'rixana, kepterxana*.

Muzika va u bilan aloqador tushunchalar nomi: *ohang, kuy, karnay, nay, chang, jo'r, xushxon, havodor* va boshqalar.

Maktab, maorif, ilm va ta'limga doir atamalar: *daftar, shogird, donish, dono, pand, ro'znoma, ustod* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *da'pter, sha'kirt, dana, ystaz* kabi.

Savdo-sotiq va moliyaviy ishlarga doir atamalar: *arzon, baho, bepul, daromad, rasta, sarmoyador, xaridor, savdo* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *arzan, baha, biypul, daramat, sao`da* va h.

Harbiy tushunchalar, qurol aslahalar atamalar: *lashkar, navkar, sarkarda, kamon, hanjar, zambarak, gurza, chodir, to`pponcha* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *la`shker, nao`ker, sa`rkarda, kaman, gurzi*.

Hajm, miqdor va o`lchov anglatuvchi so`zlar:

a) *hajm, baland, past, pakana, reza*; Qoraqalpoq tilida: *ba`lent, pa`s, dana*.

b) *miqdor, chegara, barobar, dona, zich, kam, serob, to`da, son, yagona, chandon*. Qoraqalpoq tilida: *mug`dar, shegara, kem, san*.

v) o`lchov birliklari: *jo`ra, chorak, paysa, palla, taroz, yakbor, yakka* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *sherek, pa`lle, ta`rezi, jeke*.

Yosh anglatuvchi so`zlar: *juvon, kampir, momo, mo`ysafid, norasida* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *jao`an, kempir, mama, na`reste*.

Xususiyat, holat va belgi anglatuvchi so`zlar:

1) ijobiy xususiyat, belgi va holat anglatuvchi so`zlar: *barno, andisha, barqaror, bob, gulrux, lolaro`y, ozoda, nozik, orombaxsh, sarbasta, hurliqo, hushyor*; Qoraqalpoq tilida: *bap, na`zik*.

2) salbiy xususiyat, belgi va holat anglatuvchi so`zlar: *badbo`y, badgumon, badbaxt, nomard, rasvo, xudbin, xumpar*. Qoraqalpoq tilida: *namart*.

3) ijobiy va salbiy psixik holat anglatuvchi so`zlar: *baxtiyor, xanda, hurram, xushnud, shodon, hamdard*. Qoraqalpoq tilida: *baxtiyar*.

4) salbiy psixik holat anglatuvchi soʻzlar: *anduh, afsus, nola, noumid, parishon, pushaymon*; Qoraqalpoq tilida: *pushayman*.

5) umuman holat anglatuvchi soʻzlar: *beva, bechora, ozod, begona, larz, nishob, nobud, payvasta, tanho, xor, shaydo, yakson*. Qoraqalpoq tilida: *biyshara, azat, biygana, xor, shayda, jeksen*.

Maʼlum boʻlganidek, qoraqalpoq tilida fors-tojikcha soʻzlarning miqdori Oʻzbek tilidagiga qaraganda ancha kam.

1.2.2. Arabcha oʻzlashmalar

Oʻzbekadabiy tili leksikasida aslida arabcha boʻlgan aksari soʻzlar uchraydi. Arabcha soʻzlarning Oʻzbek tilida mavjud boʻlishi oʻtmishda Oʻrta Osiyo territoriyasining arablar tomonidan istilo qilinishi va buning tarixiy-ijtimoiy oqibatlari bilan bogʻliqdir.

Ijtimoiy-tarixiy sababalriga koʻra Oʻzbek tiliga maʼlum maʼlum miqdorda arabcha soʻzlar kirgan. Arab tilidan Oʻzbek tiliga asosan ot va feʼl turkumiga oid soʻzlar oʻrganilgan¹. Oʻzbek tilidagi arabcha oʻzlashma qatlamni tematik, nominatsion va leksik-semantik xususiyatlariga koʻra tubandagi guruhlariga ajratish mumkin.

Ijtimoiy-siyosiy tuzum, huquqqa oid atamalar: hukumat, muassasa, davlat, amr, farmon, anjuman, qozi, voris, zakot, qonun, hazrat, hurriyat, jadid va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *hykimet, daoʻlet, aʻmir, paʻrmaʻn, qali, haʻzret, jaʻdid*

Ilm-fanga oid atamalar: maqola, ilm, nazariya, kashf, manfiy, inqiroz, lugʻat, muammo, mantiq, tasnif, nuqta, olim. Qoraqalpoq tilida: *maqala, ilim, noqat*

Adabiyot va sanʼat tushunchalariga oid tamalar: a) adabiyotga oid: *aruz, adabiyot, bayt, gʻazal, shoir, gʻazal, adib, hikoya, qofiya*,

¹ U.Tursunov, B.Oʻrinboev. Oʻzbekadabiy tili tarixi. -Toshkent, 1982. 20- bet.

radif, taxallus, tanbeh, qasida. Qoraqalpoq tilida: *aruz, a'debiyat, g'a'zzel, shayir*.

b) san`atga oid: *rasm, rassom, soqqa, tasavvur, me'mor, mug'anniy, hofiz*.

Ishlab chiqarish, san`at va savdoga oid atamalar: *ziroat, mol, sanoat, asbob, do`kon, qimmat, xarj, qassob* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *sanaat, a'sbab, dukan, qimbat, qarji, qassap* va b.

Harbiy ish, harbiy tushunchalar, qurol-yarog`lar atamalari: *asir, xavf, xatar, hamla, zafar, shavkat, istilo, g'alaba, himoya, hifz, xandaq*.

Kitob va nashriyot ishlari bilan bog`liq atamalar: *nashriyot, nashr. Muharrir, matbuot, bob, nusxa, muxbir, risola, sahif, xattot*.

Maktab. ma`rifat, tarbiya va ta`limga oid atamalar: *ta`lim, harf, alifbe, xat, maorif, intizom, javob, insho, davomat, tahsil, xulq, qiroat* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *ta'lim, ha'rip, a'lippe, xat, jao`ap*.

Kasb-hunar va u bilan aloqador tushunchalarning tamalari: *kasb, kosib, usta, asbob, qassob, tarjimon, farrosh, xodim, g'avvos, hammol* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *ka'sip, ysta*

Diniy tushunchalar bilan bog`liq atamalar: *avliyo, azon, ohirat, olloh, islom, injil, kavsar, zohid, valiy, dahr, tavof, sajda, foniy, sharh, g'aziy, qiyomat, jannat, jahannam* va boshqalar. Qoraqalpoq tilida: *a'o`lie, azan, alla, o`a'liy, qiyamet, ja'nnet*.

E`tibor berilsa, qoraqalpoq tilida arabcha o`zlashmalar ham O`zbek tilidagiga qaraganda ancha kam.

1.2.3. Rus tili orqali kirib kelgan o‘zlashmalar

Hozirgi o‘zbek va qoraqalpoq adabiy tili va xalq shevalari leksikasida ruscha-internatsional so‘zlarning ulkan, salmoqli qatlami mavjud. Bu qatlam tillarning rus tili bilan o‘zaro aloqasi va ta‘siri tufayli yuzaga kelgan. Masalan, rus va o‘zbektillari XIX asr oxiri va XX asr boshlarida to‘qnashdi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asrning boshlarida o‘zbeklar hayotida ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar yuz berdi. Bu davrda O‘zbekistonda zamonaviy sanoat, fan va texnikaning, madaniyatning yangi kurtaklari paydo bo‘ldi. O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekistonda madaniyat va maorifning yangi shaxobchalari shakllandi. Bu muassasalarda o‘sha davrning ilg‘or fan va madaniyat yutuqlari o‘qitildi va targ‘ib qilindi. O‘sha davrdan boshlab rus tili o‘zbek tiliga ta‘sir etdi. Bu ta‘sir tufayli O‘zbek tiliga rus tilidan bir qator so‘zlar kirib kela boshladi.

Rus tili chor Rossiyasida rasmiy davlat tili hisoblanardi. Mahalliy o‘lkalarda ham davlatning rasmiy xujjatlari yuridik va savdo qog‘ozlari rus tilida rasmiylashtirila boshladi. Gimnaziyalarda, rus-tuzem maktablarida o‘qitish ishlari ham asosan rus tilida olib borilar edi. Bu mahalliy xalqni rus tilini egallashga, bilishga da‘vat qilar, bunday intilish esa rus tili ta‘sirini kuchaytirardi.

Keltirilgan sabablar XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida rus tilining o‘zbek tiliga ta‘sirini ta‘minlagan omillardir. Bunday ta‘sir natijasida o‘zbek tiliga rus tilidan bir qator so‘zlar kirib keldi. Bunday o‘zlashmalarning ba‘zi namunalari o‘sha davrda nashr qilingan mahalliy matbuot – gazeta va jurnallar, rasmiy-yuridik hujjatlar sahifasida saqlanib qolgan. Ayni shu holat qoraqalpoq tilini ham chetlab o‘tmadi, deyish mumkin. Ularning tubandagi tiplarini ko‘rsatish mumkin.

Savdo va moliyaga oid atamalar: banka (bank), aksiya (aktsiya), kontrak (kontrakt), budjet (byudjet).

Rasmiy-yuridik sohaga oid atamalar: amnistiya (amnistiya), turma (tyurma).

Texnika transportga oid atamalar: poyiz (poezd`), shofir (shofer), vago`n (vagon), zavut (zavod).

Aloqaga oid atamalar: tilifon (telefon), perevut (perevod), yashik (yashik), kvitansa (kvitantsiya).

Maorif, madaniyat va san`atga oid atamalar: glubus (globus), gazit (gazet), pechat (pechat), qarta (karta), kino (kino), tans (tantsa) va boshqalar.

Hozir o`zbekadabiy tilida ruscha-baynalminal so`zlarning tubandagi leksik-semantik guruhlar mavjud:

Uy-ro`zg`or buyumlari atamalari: stakan, banka, vaza, grafin, karavat, serviz, kreslo, magnitafon, sin`ka, kraska shkaf, tryumo, servant, kreslo, divan, stol, stul va boshqalar.

Kiyim-kechak nomlari: botinka, tufli, kepka, pal`to, jempir, noski, chulki, fufayka, kurtka, sharf, shlyapa, va boshqalar.

Mato (materiallar) nomi: drap, triko, bostan, bumazey, pambarxit, shtapel`, krepjorjet, vel`yur va boshqalar.

Oziq-ovqat va oziq-ovqat mahsulotlari nomi: kefir, keks, konfet, kompot, limonad, pivo, kofe, kakao, koka kola, fanta, shokolad, kalbasa, sir, buterbrod, mayonez, konserva va h.

Kosmetika va u bilan aloqador narsalar nomi: krem, duxi, manikyur, pedikyur, pomada, pudra, odekalon, duxi.

O`simliklar, sabzavotlar, ular mahsulotlari nomi: pomidori, limon, mandarin, kartoshka, banan, jenshen, akatsiya, ananas, kivi va boshqalar.

Qurilish, maishiy, kommunal ishlariga oid soʻzlar: alebastr, asfal't, tol, karniz, lak, montaj, park, mekromal, maket, gipsokardon, akfa, linolium, parket va b.

O'quv qurollari nomi: doska, ruchka, tsirkul', avtoruchka, al'bom, flomaster, skotch.

Harbiy ish va harbiy sanoatga oid soʻzlar: general, admiral, matros, kapitan, armiya, garnizon, vzvod, mina, samalyot, gil'za, katyusha, bronojilet, kaska.

Transport vositalari nomi: avtobus, tramvay, vagon, poezd, metro, moped, velosiped, kater, kupe, lift, mercedes, BMV, taksi, marshrut va boshqalar.

Ilmiy texnologiya bilan bog'liq terminlar:

1. Fan sohalari, yo'nalishlari nomi: agronomiya, agrotexnika, arxeologiya, geologiya, fizika, toponimika, fonologiya.

2. Fan metodlari, aspektlari nomi: akademizm, vitalizm, gipotermiya, detektiv, dioxronik, metafizika, klaster, sinkveyn, Blum texnologiyasi va boshqalar.

3. Ilmiy-texnikaviy kasb egalari nomi: agronom, agrotexnika, bibliograf, biolog, bioximik, gidrolog, ginekolog, laborant, fizik.

4. Ijtimoiy – siyosiy va ilmiy tashkilotlar nomi: akademiya, kongress, senat, federatsiya, institut, universitet, kollej, litsey, kafedra va boshqalar.

5. Ijtimoiy siyosiy terminlar: anarxizm, deputat, delegat, demokrat, dekret, kodeks, pasport, advokat, aliment, prokuror, prokuratura, sud, amnistiya, intellektual, logika, deklatsiya, rezolyutsiya, kvorum, missiya, diktatura, sanksiya, nota va boshqalar.

6. Pedagogika, psixologiya va maorifga oid terminlar: abituriyent, aspirant, aspirantura, dekan, dotsent, metodika, metodist, intuitsiya, intellekt, gerantopsixologiya, gerantologiya va boshqalar.

7. Fizkul`tura va sportga oid so'zlar: alpinist, arbitr, basketbol, basseyin, boks, voleybol, gol, kubok, nokaut, ochko va boshqalar.

8. Adabiyot va san'atga oid terminlar: drama, intermediya, poema, syujet, roman, balet, teatr, ansambl, ariya, muzey, opera va boshqalar.

9. Tilshunoslik fani terminlari: antonim, omomnim, sinonim, fonetika, fonologiya, orfografiya, toponimika, arxaizm, grammatika, affiks, semantika, polisemiya, uzus, okkazional, kosmonomika, aykonim va boshqalar.

Qayd qilingan terminlar qoraqalpoq tili lug'at tarkibidan ham mustahkam o`rin olgan.

II BOB. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI TERMINLARIDA O‘ZLASHMALAR

2.1. O‘ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI TERMINOLOGIYASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

O‘zbek adabiyotining ham, tilining ham tom ma‘nodagi jonkuyari Abdulla Qodiriy shunday deb yozgan edi: «Tillar bir-biridan qarz olmay yashay olmaydi»¹. Tillarning o‘zaro so‘z va terminlar almashinuvi haqida ko‘p olimu fuzalolar, har xil soha vakillari ham bildirishgan. Biroq A.Qodiriyning bildirgan fikri masalaning mohiyatini chuqurroq anglab olish imkonini beradi. Negaki, har bir til muayyan obyektiv sabablar-iqtisodiy, yaqinligi yoki tutashligi, yaqin qo‘shnichilik, qolaversa, quda-andachilik va egalarining boshqa xalq boshqa egalaridan so‘z va terminlarni o‘zaro almashishiga, buyuk adibimiz aytganidek, ularning bir-biridan «qarz olib» turishiga imkon tug‘diradi.

Masalaga mana shu taxlitda yondashilsa, qiyos qiliniyotgan, yani o‘zbek va qoraqalpoq tillarida ham o‘zga tillardan «qarz olingan» so‘zva terminlar o‘ziga xos o‘rinni egallaydi. Ayni shu o‘rinda alohida qayd etib tishni lozim deb bilamiz. Barcha tillarning lingvistik adabiyotlarida so‘zva terminlarning o‘zlashtirish masalasiga bag‘ishlangan o‘nlab ishlar mavjud O‘zbek va qoraqalpoq tilshunosligida ham mazkur masalaga bag‘ishlangan maxsus yoxud ayrim ishlarning muayyan qismida o‘zga terminlarni o‘zlashtirish masalasiga e‘tibor berilgan.¹

¹ Ko‘chirma quyidagi manbadan olindi: Yusupov R. «O‘zbekadabiyotshunosligida atamalar» Davlat tili haqidagi qonuni hayotga tatbiq etish va atamashunoslik muammolariga bag‘ishlangan ilmiy-amaliy anjuman materiallari. -Samarqand, 1993 –57 b

² Qapang: Borovkov A.K. Uzbekskiy literaturniy yazik v period 1905-1917 gg. –Toshkent, 1941; Pulatov M.P. Vliyanie russkogo yazika na uzbekskiy yazik. Voprosi leksiki i slovoobrazovaniya. Kurbanov M.U. Russko-karakalpaksskie yazikovie kontati na leksicheskom urovne v usloviyax aktivnogo bilingvizma: Avtoref. Dis.kand.filol.nauk.-Kiev, 1983; Djaksibaev A. Problemi vzaimodeystviya russkogo yazika s kontakti na leksicheskom urovne v usloviyax aktivnogo bilingvizma: Djaksibaev A. Problemi vzaimodeystviya russkogo yazika s karakalpakskim natsionalnim literaturnim yazikom.-Nukus, 1980 Shemshetov J. Karakalpak tiline shig‘is tillerinen kirgen sozler tariyxinan. –Nokis, 1984; Koshanov K.M. Rus ham karakalpak tillerinin oz-ara baylanisli meseleleri.-No‘kis, 1991

Biroq bu ishlarda u yoki bu tillardagi soʻzva terminlar oʻrni qay darajada, oʻzga tillarda mavjud boʻlgan tushunchalarni ifodalashi lozim boʻlgan tillarda «hazm» qilishning qanaqa yoʻl va usullari amalda ekanligi, boshqa tillardan soʻzva teminlarni qabul etishda qanday qonuniyatlar asosida ish tutilayotgani kabi qator masalalarga deyarli eʼtibor berilmagan.

Vaholanki, faqat oʻzbek va qoraqalpoq tillari teminologiyalarning oʻzga tillardan terminlar oʻzlashtirishi misolida ham qayd etilgan qonuniyatlarning koʻpini aniqlab olish mumkin ekan.

Mazkur masalaning muhimligi shubhasiz. Shuning uchun quyidagi oʻzbek va qoraqalpoq tillari terminologiyasida qaysi tillardan oʻzlashtirilgan terminlar barqaror ekanligini aniqlash maqsadida ularning qiyoslanayotgan tillarga kirib kelishi haqida qisqacha toʻxtab oʻtamiz.

Oʻzbektilshunosligiga oid ayrim ishlarda qayd etilishicha, oʻzbek tiliga fors-tojik tillaridan koʻproq konkret maʼnoli, arab tilidan esa abstrakt maʼnoli lekssemalar oʻlashtirilgan. Chunonchi, A.K.Borovkov quyidagilarni taʼkidlaydi: «Tojik tilidan kirgan soʻzlarningg koʻpchiligi maʼlum real narsalarga bogʻliq soʻzlardir. Masalan: *anor, barg, beda, boʻston, daraxt, gʻisht, mis, qogʻoz, paxta* va shu kabi. Mana shuning uchun ham ular oʻzbeklugʻatiga kirib, mahkam oʻrnashib qolgan»

Umumtil leksikasidagi ayni shu holat, tabiiyki, oʻzbek va qoraqalpoq tillarining qator terminologik sistemalarida ham oʻzaksini topgandir.

Oʻzbek tilining paxtachilik (N.Mamatov), botanika (H.Jamolxonov) singari konkret fan va va ishlab chiqarishi sohalari, tilshunoslik (S.Qosimova) kabi sohalar terminologik sistemalarini

o'rganishga bag'ishlangan ishlarda tadqiqot obyekti qilib olingan terminlar qayd etilgan fikrning asosli ekanligini tasdiqlay oladi.

Garchi aniq ma'lumotga ega bo'lmasak-da, qoraqalpoq tili leksikasida ham ayni o'xshash holni, ya'ni kam miqdorda fors-tojikcha va aksincha, ancha ko'p miqdorda arabcha abstrakt ma'noli o'zlashtirmalarning mavjudligini ko'rish mumkin. Qoraqalpoq tilining tilshunoslik (Q.Pirniyazov), adabiyotshunoslik (A.Qutlimuratov), ijtimoiy-siyosiy (A.Pirniyazova), meditsina (Q.Jaqsimuratov), qishloq xo'jaligi (Sh.Karimxo'jaev) kabi sohalari terminologiyalari o'rganilgan ishlar fikrimizni tasdiqlay oladi, deb o'ylaymiz.

Avvalo shuni qayd etish lozimki, o'zbek va qoraqalpoq tillari ijtimoiy-siyosiy terminologiyalarida yuqorida bayon qilgan fikrmiz o'zining to'liq tasdig'ini topdi. O'zbek tilshunosi H.Dadaboevning guvohlik berishicha, XI-XII asrlarga oid yozma yodnomalarda vaxshish, g'avg'a, butxona, zanjir (ko'chma ma'noda), payk («chopar»), pardadar, rustayi-rusta («dehqon»), shahriy («shaharlik»), sud («foyda»), cho'ri singari cheklangan miqdordagi fors-tojikcha terminlar ishlatilgan¹.

Hozirgi bosqichda ham o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida fors-tojik tillariga oid leksimalarning miqdori unchalik ko'p emasligini qayd qilingan tizimda *korxona*, *pul*, *namzod*, *nishon*, *reja*, *daromad*, *garov*, *maydon*, (*ko'chma ma'noda siyosat maydoni*), *savdo*, *zamon* kabi terminlarga faol ravishda qo'llanilmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» matnida ishlatilgan *poytaxt*, *namoyish*, *guruh*, *nomzod*, *dastur*, *bozor*, *bepul*, *farmon*, *farmoyish*, *devon*, *korxona*, *shahar* singari atigi 12tagina terminning borligi dalili ham yaqqol tasdiqlab turibdi.

¹ Ko'rsatilgan avtoreferat, 36 b

Qayd etilganidek, o'zbekleksikasida arab tilidan o'zlashtirilgan terminlarining aksariyati abstrakt ma'nolaridir. Ijtimoiy-siyosiy sohalarning asosini abstrakt tushunchalar tashkil qilganligi tufayli ham ularni ifodalash uchun o'tmishdayoq ayni shu arabcha o'zlashtirmalardan foydalanilgan. H.Dadaboyevning ta'kidlashicha, XI-XII asrlarga oid qoraxoniylar yozma yodgorliklarida *adovat*, *amr*, *amarat*, *mulk*, *nasab*, *raiyyat*, *xalifa* singari 260 dan ko'proq XIII-XIV asr ilgarigi manbalarda uchramagan *akabir*, *arkani-davlat*, *baqqol*, *bazzoz*, *bilad*, «*oblost*», *viloyat*», *vaqf*, *vakil*, *vildan*, *jariya* («*ayol qul*»), *fiqih* («*qonunshunos*») kabi ijtimoiy-siyosiy terminlar ishlatilgan ekan.²

Hozirgi o'zbek tilida esa, ijtimoiy-siyosiy terminologiyada qo'llanilayotgan terminlarning umumiy miqdori haqida aniq bir raqamni ayta olmasak-da, ularning salmoqi katta ekanligini alohida ta'kidlamog'chimiz. Lekin «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi»ga murojaat etishni lozim deb topdikki, bu har holda, o'zbek tilidagi ijtimoiy-siyosiy arabcha terminlarning o'рни haqida bir qadar tasavvur hosil qiladi. Hisob-kitoblarga qaraganda, unda jami 236 ta ijtimoiy-siyosiy termin bor. Shundan 111 tasi aslida arabchadir.

Masalan, *xalq*, *inson*, *huquq*, *davlat*, *avlod*, *adolat*, *siyosat*, *hujjat*, *mamlakat*, *mulk*, *jamiyat*, *jamoat*, *kafolat*, kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, mazkur manbada biror komponenti aniqrog'i, asosi arabcha, yasovchi affikslari esa, umumturkiy yohud fors-tojik tillariga aloqador bo'lgan qator terminlar mavjud.

Masalan, a) *daxlsizlik*, *fuqoralik*, *homiylilik*, *faollik*, *muholifotchi*, *a'zolik*, *vasiylik*, *vazirlik*, *tartibsizlik* va h.

² Dadaboyev X.A. Ko'rsatilgan avtoreferat, -35 b.

¹ Bir chiziqli asos arabcha, qora kvadrat ichidagilar esa fors-tojikcha komponentdir

b) *g'amlik, mulk, boj, qasam* va b.¹

O'zbek tiliga, jumladan, uning deyarli barcha terminologik tizimlariga, rus tili va u orqali boshqa evropa tillaridan olingan so'zva terminlar xususida qator maxsus ishlarda ham, monografiya va maqolalarda ham ko'plab fikrlar bildirilgan. Bunday terminlar o'zbek vaqtli matbuotida XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab, aniqrog'i, Chor Rossiyaning O'rta Osiyoni mustamlakaga aylantira boshlashidan keyin tez-tez paydo bo'la boshladi.

Tabiiyki, O'zbek tilidan o'rin ola boshlagan leksemalar ichida *isezd (syezd), agitatsiya (agitatsiya), uprava (boshqarma), eksport, imperia, anarxiya (anarxiya), burakrat (byurokrat), burju (burjuy), birja, partiya, parlament, pagro'm (poram), politsiya, (politsiya), pro`gram (programma), дума, diplomat, deputat, departament, demo`kratiya, (demokratiya)* singar qator ijtimoiy-siyosiy sabalar ham mavjud edi.¹ To'g'ri, ma'lum, sabalarga ko'ra, o'tgan asrning 90-yillargacha o'zbek tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida ham ko'pincha ruscha-baynalminal terminlar ishlatilib kelindi. Keyingi yillarda bularning ayrimlari fors-tojikcha yoxud arabcha terminlar bilan almashtirila boshlandi. Masalan, *programma-dastur, norma-meyor, qoida, grajdan(in)-fuqora, territoriya-hudud, sitema-tizim, traditsiya-an`ana, simvol-ramz, gimn-madhiya, ideologiya-mafkura, pensiya-nafaqa, gruppа-guruh, oblast`-viloyat, posyolka(posyolok)-shaharcha, kandidat-nomzod, ministr-vazir, kabinet-mahkama, apparat-devon, fond-jamg`arma* va b.

Mana shunga ko'ra, O'zbekiston Respublikai Konstitutsiyasining matnida faqat 33 ta ruscha baynalminal termindan

¹ Borovkov A.K. Uzbekskiy literaturniy yazik, 58-102 betlar, Olim Usmon, Hamitov Sh. O'zbektili leksikasi tarixidan materiallar. –Toshkent, 1981

foydalanilganligi ma'lum bo'ldi. Bular jumlasiga quyidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar kiradi:

Suverenitet, demokratiya, sovet, referendum, respublika, parlament, kredit, konstitutsiya, organ, gerb, prezident, partiya, institut, sub`ekt, sud, miting, tsenzura, okrug, deputat, norma, advokatura, material, ustav, orden, prokuror, bank, komissiya, medal`, byudjet, valyuta kabi.

Keltirilgan dalillar jamuljam qilinganda boshqa tillardan o'zlashtirilgan 156 ta tub shaklidagi ijtimoiy-siyosiy termin mavjudligi ma'lum bo'ldi.² ularning qaysi tillarga oidligi quyidagi sxemada o'zaksini topgan:

Jami o'zlashma termin	Jumladan		
	arabcha	fors-tojik	ruscha-baynalminal
156	111	12	33

Endi qoraqalpoq tilidagi o'zlashtirma ijtimoiy-siyosiy terminlar haqida qisqacha to`xtab o'tamiz. Ma'lumki, yuqorida qayd etiganimizdek, qoraqalpoq tilshunosligida o'zga tillardan so'zva terminlar o'zlashtirish masalasi yoritilgan talaygina ishlar mavjud. Ularning har biriga alohida to`xtalib o'tirmay, ayrim dalilarni keltirish bilan cheklanishni lozim, deb topdik.

N.A.Baskakov shunday deb yozadi: «Agar turkiy tillarga qadimgi eroniy tillar elementlari Markaziy va O'rta Osiyo da yashagan eroniy qabilalar orqali kirib kela boshlashi juda qadimgi davrga borib taqalsa, arab va forsiy leksikani keng miqyosda o'zlashtirish nisbatan keyinroq, aniqrog'i, yangi eramizning X asrdan bosib

² Bunday terminlar sirasiga arabcha +o'zbekcha (vasiylik, iste'molchi), fors-tojikcha+o'zbekcha (farovonlik), arabcha+fors+tojikcha (bojona) va hokazo qabilidagi yasalishlar kiritilmadi.

olingandan so`ng boshlandi»<sup>1</sup> Bu fikr qoraqalpoq tili lekiskasiga ham to`la taaluqlidir. To`g`ri, qoraqalpoq tiliga qachon va qaysi manbalar orqali leksemalar o`zlasha boshlaganligini aniqlash qiyin. Shunday bo`lsa-da, mazkur olimning ishiga hamda O.Bekbaulov va H.Mambetnazarovlar tomonidan tuzilgan lug`at<sup>2</sup> ga boshqa tillardan o`zlashtirilgan ijtimoiy-siyosi terminlar ham ishlatilganligi haqida fikr yurita olamiz. Shu o`rinda yana N.A.Baskakov fikrlariga e`tiborni qaratamiz. Qoraqalpoq tiliga arabcha va fors-tojikcha o`zlashmalarning kirib kelishi hiqida turkshunos olim shunday yozadi: «Arab va fors tillari leksikasi o`zlashishining asosiy manbayi forsiy adabiy til bo`lib, keyinchalik mo`g`ullar davrigacha bo`lgan Xorazm va qoraxoniylar davlati turkiy adabiy tili hamda mo`g`ullar davridan keyingi Oltin o`rda va temuriylar (eski o`zbek) tillaridir»¹. Shunday qilib, qoraqalpoq tilining ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida quyidagi tillardan o`zlashtirilgan terminlar qadimdan qo`llab kelingan.

1. Fors-tojik tillaridan: *ant-ant*, (*ont*, *qasam*), *dana* (*dona*), *mert* (*mard*), *nalish* (*nolish*, *arz-dod*)² *abiray* (*obro`y*), *alaman* (*olomon*), *bayram*, *ba`zirgen* (*savdogar*), *ba`rga* (*saroy qabulxonasi*), *ba`bitishe* (*kichkina qul ayol*), *bende* (*qul*) *biy* (*elni boshqaruvchi*), *gedey* (*gadoy*), *dat* (*arz*), *datxa* (*dodha*), *da`rgay* (*dargoh*), *da`ro`ish* (*darvesh*), *dushpan* va .³

2. Arab tilidan *va`zir* // *vazir*, *g`arib*, *dat*, (*da`vo*, *dov*) *jaza*, *jallat*, *ja`miyet*, *zulim*// *zulum*, *qa`de*// (*qoida*), *laqap* (*unvon*,

¹ Baskakov N.A. Sostav leksiki karakalpaksogo yazika i struktura slova // Issledovaniya po sravnitel'noy grammatike tyurkskix yazikov. IV Leksika, -M., 1962.-S.76

² Bekbauliev O. , Mambetnazarov K. Ko`rsatilgan asar

¹ Baskakov N.A. Ko`rsatilgan asar, 76- bet

² Baskakov N.A. Ko`rsatilgan asar, 78- bet

³ Bekbauliev O. , Mambetnazarov K. Ko`rsatilgan asar 7-73 b

*mansab*⁴) *azap*, *a'lem* (*dun`ya*), *a'mir*, *bajban* (*boj oluvchi*), *g'a'ziyne*, *g'alao`it* (*tartibsizlik*), *da'ulet*, *dun`ya* va h⁵

N.A.Baskakovning ta'kidlashicha, qoraqalpoq tiliga rus tili leksikasi o'zlashmalari kirib kela boshlashi nisbatan keyingi davrga-aniqrog'i, Xiva xonligining bosib olinishi hamda qoraqalpoq xalqining Rossiya hukmronligi ostiga o'tishi davriga to'g'ri keldi. Shunigdek, olim mazkur davrlardagi qoraqalpoq tiliga o'zlashgan ruscha leksemalar sifatida quyidagilarni sanab o'tadi: *apiser* (*ofitser*), *badiraq* (*batrak*), *bolis* (*volost`, volostnoy*) *kengse* (*kantselyariya*), *pay*, *priystap* (*pristav*), *raboshi*, *tiligram* (*telegramma*), *sot* (*sud*), *iskalat* (*ombor*), *itoroj* (*qorovul*) va b¹

Qoraqalpoq tili ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining bugungi tarkibiga nazar tashlaydign bo'lsak, o'zlashma qatlaminig o'rni belgili darajada ekaligini ko'rish mumkin.

Yuqorida biz o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining bugungi tarkibidagi o'zlashma qatlaminig o'rnini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoraqalpoqcha tarjimasi matni asosida qoraqalpoq tili ijtimoiy-siyosiy terminologiyasining hozirgi bosqichdagi darajasini ko'rib chiqamiz (terminlar qoraqalpoq tili xususitlari asosida o'zlashtirilgan)

1. Fors-tojik tilidagi o'zlashtirilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar: *xoshemet* (*rag`bat*), *dastur*, *nishan*, *reje*, *ma'limleme* (*axborot*), *ka'rxana*, *parman*, *paytaxt*, *bazar*, *biypul* kabi

2. Arab tilidan o'zlashtirilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar: *xaliq*, *huqiq*, *puqara*, *jamiyet*, *millet*, *qarar*, *ha'kim*, *ha'kimiyat*, *o`akil*, *napaqa*, *siyasat*, *ao`lad*, *ma`jilis*, *arza*, *esap* (*hisobot*), *o`alayat*, *jaza*, *o`aziypa*, *ma'mleket*, *nizam* va b.

⁴ Baskakov N.A. Ko'rsatilgan asar, 78- bet

⁵ Bekbauliev O., Mambetnazarov K. Ko'rsatilgan asar 8-31 b

3. Rus tili va u orqali evropa tillaridan o'zlashtirilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar: *konstitutsiya, prezident, respublika, demokratiya, miting, referendum, tsenzura, deputat, parlament, ustav, amnistiya, ministr, advokatura, suverenitet, kredit, valyuta, komissiya, orden, medal* va b.

Aytilganlarni jamlaganda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qoraqalpoqcha tarjimasida o'zga tillardan tub holidagi 111 ta ijtimoiy-siyosiy termin o'zlashtirilganligi ayon bo'ldi. Ularning qaysi tillarga oidligini quyidagi jadval aniq ko'rsatib bera oladi.

Jami o'zlashma termin	Jumladan		
	arabcha	Fors-tojikcha	Ruscha-baynalminal
111	42	9	60

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'zbek tilidagi matnida qo'llangan ijtimoiy-siyosiy terminlar bo'yicha ham ayni shunday ikkala ma'lumotni birlashtiruvchi quyidagi jadvalga e'tiborni qaratsak.

Jami o'zlashma		Fors-tojikcha		Arabcha		Ruscha-baynalminal	
o'zbek. matnda	qoraqalp matnda	o'zbek tilida	qoraqal tilida	o'zbek tilida	qoraqal tilida	o'zbek tilida	qoraqal tilida
156	111	12	9	111	42	33	60

Keltirilgan dalillardan ma'lum bo'lmoqdaki, Konstituttsiyaning o'zbekcha matni bilan qoraqalpoqcha tarjimasidagi matnida u yoki bu tillardan o'zlashtirilgan ijtimoiy-siyosiy terimnlar «hisob-kitobida»

¹ Baskakov N.A. Ko'rsatilgan asar, 79- bet

ancha-muncha farq bor ekan. Shunday bo'lishi ham tabiiydir. Buning bosh sababini yuqorida qayd etib o'tdik. Haqiqatan ham o'zbek va qoraqalpoq tillari bir til oilasiga mansubligidan qat'iy nazar, ularning har biri ichki rivojlanishi qonuniyatlari asosida zarur bo'lgan terminlarni o'zlashtirar ekan. Buni keltirilgan dalillar ham isbotlab turibdi.

Avvalo shuni aytish lozimki, har bir til egasi u yoki bu tushunchani ifodalash uchun o'zleksikonidan imkoniyat topa olmasa, boshqa tillar «mulki»ga murojaat qiladi. Buni qaysi tilning materiali ekanligi masalasida qo'yidagicha mulohaza yuritish kerakka o'xshaydi: birinchidan, «retsipient» til «donor» tildan o'zining grammatik qonuniyatlariga (masalan, fonetik talaffuziga) mos keladigan o'zlashmalarni o'zgrammatik qonuniyatlariga mos ravishda o'zlashtiradi; ikkinchidan, biror tushuncha «donor» tilda avvaldan o'zleksemasiga ega bo'ladi, «retseipient» tilda esa u ifodalangan bo'lmasligi mumkin. Bizningcha, mana shu sabalarga ko'ra, noqardosh tillar ham u yoqda tursin, hatto qardosh tillarda ham u yoki bu ijtimoiy-siyosiy tushuncha har xil tillardan o'zlashtirilgan terminlar bilan ifodalanaverishi mumkin ekan.

2.2. O'ZBEK VA QORAQALPOQ TILLARI O'ZLASHMALARIDAGI FARQLAR

Turkiy tillarning ko'pchiligida aslida arabiy *vatan* termini "kishi tug'ilib va o'zini uning fuqorasi hisoblagan mamlakat; ona yurt" manosida *vatan* (o'zbek tilida), o'atan (qoraqalpoq tilida) fonetik farqli holatda ifodalanganligini ko'ramiz. Yoki *rais* terminini olib ko'rsak, u ba'zi «organ, tashkilot, idora, jamiyat va shu kabilarning boshlig'i, rahbari» ma'nosida qo'llangan:

Bir odam rayon sovetinig raisiga va`da qilgan ekan.
(A.Qahhor).

To`g`ri, qoraqalpoq tilida ham *rais* termini *ra`yis* shaklida avvaldan ishlatilgan.

Masalan:

Jurt sorag`an patsha adil bolmasa,
Qazi, rayis duri sau`al almasa,
Aytqan sharti iqrarinda turmasa,
Ərman menen qayg`ilanip olerseng.

(Əjiniyaz)

Misoldan ko`rinib turibdiki, rayis «diniy marosim va urf-odatlarining bajarilishini kuzatib boruvchi, shuningdek o`lchov va tosh-torozilarning to`g`riligini tekshiruvchi mansabdor shaxs» ma`nosida qo`llangan.

O`tgan asrning 70-80 va undan oldingi yillari ta`sirida mazkur termin qoraqalpoq tilida ham ruscha *predsedatel* termini bilan ifodalanib kelingan: *Raykom ma`jilisinen kelgen kolxoz predsedateli sekratarina erteng azang`i saat tog`izda aktivlerdi jiynaudi tapsirdi.* (Əmudarya).

Hatto «Russko-karkalpakskiy slovar» (1957) da bu o`zlashtirmaning asosiy ekanligi qayd etilgan.<sup>1</sup> «Qaraqalpaq tilining orfografiyalik sozligi» («Qoraqalpoq tilining imlo-lug`ati»)²da esa *predsedatel`(-ge,-den)*, *predsedateli*, *predsedatelliq* kabilar ham kiritilgan. Biroq yuqorida qayd etilgan sabablarga ko`ra, *predsedatel`* termini qoraqalpoq tiliga o`zlashib ketmadi, uning o`rnini «Russko-karakalpakskiy slovar`»da ikkinchi o`ringa chiqarilgan *basliq* termini egalladi: *Konstitutsiyaliq sud siyasat ha`m huqiq tarauindag`i*

¹ RKS, 759 b

² Qaraqalapaq tilinin orfografiyalik sozligi. _No`kis, 1990. 240- bet

qanigelerden Konstitutsiyaliq sudting, baslg'in, basliqting orinbasari ha'm sudyalari quraminda saylanadi, og'an Qaraqalpaqstan Respublikasidan o'akil kiredi (O'RK). O'zbekstan Respublikasining Oliy Majilisining Baslig'in ham orinbasarlarin saylau... (O'RK). 2010 yilda nashr etilgan "Russko-karakalpakskiy slovar'"da predsdatel termini basliq shaklida o'zgartirilgan.

O'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan qonun terminining qoraqalpoq tilida *zakon, zang va nizam* kabi ma'nodoshlari mavjud. Shunisi e'tiborliki, *zakon-ruscha, zang-xitoy* tilidan (N.A.Baskakov)¹, *nizam* esa arabcha o'zlashmadir. «Russko-karkalpakskiy slovar'»ga murojaat qilinsa, unda mazkur tushuncha *zakon, zang va nizam* terminlari bilan ifodalanganligi ma'lum bo'ladi. Demak, o'tgan asrning oltmishinchi va undan oldingi yillarida *zakon* asosiy termin sifatida «qonunlashtirilgan». 80- yillarda ham ayni shunday holni ko'rish mumkin. "Qaraqalpaq tilining tysindirme so'zligi"ning (QQTTS) 1998- yilda nashr etilgan II jildida *zakon* asosiy termin sifatida «pasportlashtirilgan»: *zakon at.*

1. «Ma'mleketlik biylikting joqarg'i organi ta'repinen bekutilgen ha'mmege birdey reje, qa'de, nizam, zang»²

«Russko-karkalpakskiy slovar'»da *qonunga* sinonim tarzida tanlangan *nizam* QQTTS ham «ikkinchi o'ringa» chiqarilgan: *nizam at. «zang, zakon, ta'rtip, qag'iyda, reje»³.*

Russko-karakalpakskiy slovar'" (RKS)dagi asosiy deb hisoblangan *zakon* terminiga ham QQTTS (II jild)da yuqoridagiday, «ikkinchi o'ringa» tushirib quyilgan: *zang, at. Ma'mleketting eng joqari hukimet organlari qabillaytug'in ayriqsha zang, kushke iye bolg'an akt, qa'o'li qararlar, dekret».*

¹ Baskakov N.A. Ko'rsatilgan ish. 78-b.

² QQTTS. 1988, -No'kis, 238-b

Va nihoyat, 1993- yilning 9- aprelida, *zakon* va *zan* leksemalari «hayot sahnasidan» tushirib qoldirildi va terminologiya maydonidagi o'ziga xos bu «raqobat»da *nizam* termini g'olib bo'lib chiqdi, qoida qonunlashtirildi, ya'ni shu kuni «*Qaraqalpaqstan Respublikasi Konstitutsiyasin qabil etiw haqqinda Qaraqalpaqstan Respublikasining nizami*» qabul qilindi.²

Shu o'rinda *zang* terminining o'zbekhalq shevalarida ham uchrashini ta'qidlab o'tmoqchimiz.

Bu haqda «O'zbek xalq shevalari lug'ati»da shunday yozilgan: «*zan* - (*Farg'ona, Toshkent, Turkiston*) *udum, odat, rasm, qonun «obichay», zakon*»: *To'ydan oldin qizminam qochish bizziz zangivuzda yo': (Toshkent); Tonnarda kep, paxillatip, zangsiz a'ka'tka'n (Turkistan).*³

Mana shu sabablar tufayli O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining o'zbekcha matni va uning qoraqalpoqcha tarjimasida matnida o'zlashma ijtimoiy-siyosiy terminlar «hisob-kitobi»da ayrim farqlar paydo bo'lgan. Bu haqda yana to'liqroq ishonch hosil qilish uchun quyida keltiriladigan dalillarga diqqatni jalb etmoqchimiz:

1). "Konstitutsiya" matnida arab tilidan o'zlashtirilgan quyidagi ijtimoiy-siyosiy terminlar ishlatilgan: *davlat, manfaat, qonun, muassasa, nafaqa, viloyat, sha'n, qaror, vakil, majlis jazo, harakat, avlod, jamiyat, fuqaro, munosabat, ittifoq, imtiyoz, hibs, nazorat, qadriyat, himoya* va h.

2). "Konstitutsiya"ning o'zbekcha matnida qo'llangan termin o'zbek tilida ham qoraqalpoq tilida ham arabcha (garchi ma'nolari bir xil yoxud bir-biriga yaqin bo'lsada), biroq ularning o'zak negizlari xilma-

³ QQTTS. , 1988, -T.Sh-B365

² Qaraqalpaqstan Respublikasi Konstitutsiyasi -No'kis, 1993-j..

³ O'zbek xalq shevalari lug'ati.-Toshkent: Fan, 1971.109-b.

xil. Masalan; *inson-adam, davlat-ma'mleket, adolat-a'dillik, iroda-erk, nizo-daw (da'vo), muassasa-mekeme, manfaat-ma'p, sir-qupiya, faoliyat-mashqulat* kabi.

3. "Konstitutsiya"ning o'zbekcha matnida ishlatilgan arabcha termin «tarjima matn»da qoraqalpoqcha termin bilan ifodalangan; *hayot-turmis, qadriyat-bayliq, himoya-qorg'au, nazorat-qadag'alau, rais-basliq, muzokara-so'ylesiu, mudofaa-qorg'anu, munosabati-qatnasiq, e'tiqod-isenim, imtiyoz-jenillik, hibs-qamau, taklif-usinis, shikoyat-shag'im, tarkib-quram, ijro-orinlaniu, unvon-ataq, muhokama-dodalau, mutaxassis-qaniyge, hujum-topilis, sharh-tusinik, tarjimon-dilmash* va h.

4. "Konstitutsiya"ning o'zbekcha matnida qo'llangan arabcha termin «tarjima matn»da *ruscha-norma, hujjat-akt, vazir-ministr, mukofot-nagrada (siyliq), iste'fo-otstavka, muxarrir-redaktor, asos-printsip, moliya-finans, muqobil-al'ternativali, hakam-arbitraj, tajovuz-agressiya, oila-semya (shangaraq),¹ g'oya-printsip, mafkura-idelogiya, madhiya-gimn, irq-rasa* va b

5. Shuningdek "Konstitutsiya"ning o'zbekcha matnida ishlatilgan ijtimoiy-siyosiy termin umumturkiy, "qoraqalpoqcha matni"da ruscha-baynalminal muqobil bilan ifodalangan; *tizim-sistema, bo'g'in-yacheyka, tuman-rayon, jamg'arma-fond* kabi.

6. "Konstitutsiya"ning o'zbek tilidagi matnida asos arabcha, "tarjima matn"da esa asos fors-tojikcha ijtimoiy-siyosiy terminlar bilan aks ettirilgan; *an'ana-dastur, ramz-nishan, qoida-reje, axborot-ma'limleme, rag'bat-xoshamet* kabi.

¹ Shuni ta'kidlash kerakki, oila terminining keyingi vaktlarida qoraqalpoq tilida ayla shaklida ishlatilishi ham kuzatilmokda: Biraq, Seregul «ering-piring»-dep uyretken aylada tərbiyalang'an. Məmbetov K. Muhabbat həm əjel. Aral, 1992 №2. 6-b.

7. “Konstitutsiya”ning o‘zbekcha matnida ishlatilgan ruscha-baynalminal termin “tarjima matn”da qoraqalpoqcha termin bilan berilgan; *organ-uyim, gerb-tangba, sovet –kenges* kabi.

8. “Konstitutsiya” ning o‘zbekcha matnida ishlatilgan fors – tojikcha ijtimoiy-siyosiy termin, “tarjima matn”da ruscha-baynalminal termin orqali ifodalanganligini kuzatish mumkin; *nomzod-kandidat, dastur-programma, devon-apparat, namoyish-demonstratsiya, shaxarcha-posyolka* kabi.

9. “Konstitutsiya”ning o‘zbekcha matnida fors-tojikcha ijtimoiy-siyosiy termin uning qoraqalpoqcha tarjimasida ham shunday berilgan, *poytaxt-paytaxt, farmon-parmon, bozor-bazar, bepul-biypul* kabilar.

Shuni ta’kidlash lozimki, o‘zbek va qoraqalpoq tillari terminologik tizimlarida, shu jumladan, ijtimoiy-siyosiy terminologiyalarda ham so‘nggi besh-o‘n yil ichida sezilarli o‘zgarishlar ro‘y berdi.

Bu tillarga Davlat tili maqomining berilishi bilan bog‘liq bo‘lsa, qolaversa, milliy qadriyatlarning tiklanishi, millat tilining sofliги uchun jon kuydirilishi kabi obyektiv va subyektiv omillarning maydonga kelishi bilan bog‘liqdir.

Qoraqalpoq tilshunoslari D.Nasirov va Q.Qoshanovlar o‘zishlaridan birida Yu.D.Desherievning «ko‘pgina yaqinda yozuv qabul qilgan tillarning yangi ilmiy-texnik, ijtimoiy-siyosiy, o‘quv-pedagogik terminlarning 70-80 foizi o‘zlashtirmalardir», degan fikriga tayanib, qoraqalpoq tili leksikasidagi sport, madaniy-maishiy va boshqa soha terminlarining yarmi (demak, 50 foizi) rus tili va u orqali kirib kelgan o‘zlashtirmalardir, degan xulosaga kelishadi.

Bu fikrlar haqiqatan ancha yiroq bo‘lsada, ularda jon bor. Chunki “Kommunistik imperiya” hukmronlik qilgan yillarda milliy

tillar leksikasini ruscha-baynalminal leksemalar bilan boyitish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri qilib qo'yilgan edi. Bugungi kunda esa tillar leksik qatlamlarida ruscha-baynalminal va boshqa tillar o'zlashmalari nisbatan kamayganligi, ularning o'rniga har bir millat ona tilining o'zichki qo'rlaridan muqobillarni maqsadga muvofiq tanlayotganligini ko'rish mumkin. Buni "Konstitutsiya"ning o'zbekcha va qoraqalpoqcha matnlarida ishlatilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar yaqqol tasdiqlaydi.

Ko'rinib turibdiki, turkiy tillar leksikasiga, jumladan, o'zbek va qoraqalpoq tillari leksikalariga o'zga (fors-tojik arab) tillardan turli narsa va hodisalarni ifodalovchi tushunchalarning kirib kelishi juda qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kunda ham davom qilmoqda. Shu bilan birga, ikkala tilda ham rus tili va u orqali evropa tillaridan o'zlashtirilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ammo tillar leksik qatlamlarining xar birida o'zlashmalarning o'rne xilma-xildir. Chunki tillarga kirib kelgan va kirib kelayotgan yangi leksema, avvalo shu tilning o'zichki imkoniyatlari asosida grammatik qonun koidalariga bo'ysindirilgan holda qabul qilinadi.

Muayyan sabablarga ko'ra, bir tilga o'zlashgan leksemalar, xususan, ijtimoiy-siyosiy terminlar ikkinchi tilga qabul qilinmasligi va unga shu tilning o'zidan muqobil termin tanlanishi yoxud qalbakilashtirilib yangi termin hosil qilinishi mumkin. Buning natijasida o'zaro farqli leksik qatlam yuzaga keladi. Shu bilan birga, qiyoslanayotgan tillarga boshqa tillarda mavjud bo'lgan qator ijtimoiy-siyosiy terminlar aynan o'zlashtirilishi mumkinki, bular mushtarak leksik qatlamni yuzaga keltiradi.

XULOSA

O'zbek va qoraqalpoq tillarining leksik qatlamlarining aksariyati tilshunoslar tomonidan tadqiq qilingan. Ammo hali o'ztadqiqini kutib turgan talay masalalar borligini ta'kidlash mumkin.

O'zbek va qoraqalpoq tillari semantikasi bir-biridan farq qiladigan bir talay terminlar mavjud. Ma'lum bo'lishicha, muayyan tushunchalarni ifodalashda qatnashadigan leksemalarning sememalaridan ayrimlari u yoki bu tilda mavjud emas ekan. Shuningdek, qiyoslanayotgan tillarda o'zaqsini topgan ijtimoiy-siyosiy tushuncha nomushtarak leksema bilan ifodalanishi ham mumkin ekan.

Dunyoda o'zga tillardan so'zqabul qilmagan tilning o'zi yo'q. Bu fikr o'zbek va qoraqalpoq tillariga ham bevosita taaluqlidir. O'zbek tili leksemasidagi arabcha va fors-tojikcha o'zlashmalarning tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Tarixiy yozma manbalarda uchraydigan *adavat, amr, nasab, raiyat, arkani davlat, vakil, vildan («cho'ri»), g'avg'a, payk («chopar»), shahriy* kabi terminlar shular jumlasidandir. Mazkur terminlarning ayrimlari bugungi kunda ham faol iste'moldadir.

Qoraqalpoq tiliga ham arabcha va fors-tojikcha so'zlarning kirib kelishi, avvalo forsiy til, qolaversa, xorazmiylar va qoraxoniylar adabiy tili orqali ekanligi haqida ma'lumotlar mavjud. Ana shunday terminlar sirasiga ant, dana (dono), nalish (arz-dod), bayram, vazir, jaza, bajban kabilarni kiritish mumkin. Ruscha- baynalminal terminlarning har ikkala tilga o'zlashishi esa bevosita chor Rossiyaning O'rta Osiyo xalqlarini bosib olishi bilan bog'liqdir.

Turkiy tillar leksikasiga, jumladan, o'zbek va qoraqalpoq tillari leksikalariga o'zga (fors-tojik arab) tillardan turli narsa va hodisalarni ifodalovchi tushunchalarning kirib kelishi juda qadimgi davrlardan boshlab, bugungi kunda ham davom qilmoqda. Shu bilan birga, ikkala

tilda ham rus tili va u orqali evropa tillaridan o'zlashtirilgan ijtimoiy-siyosiy terminlar ham o'ziga xos o'rinni egallaydi. Ammo tillar leksik qatlamlarining xar birida o'zlashmalarning o'rni xilma-xildir. Chunki tillarga kirib kelgan va kirib kelayotgan yangi leksema, avvalo shu tilning o'zichki imkoniyatlari asosida grammatik qonun koidalariga bo'ysindirilgan holda qabul qilinadi.

Muayyan sabablarga ko'ra, bir tilga o'zlashgan leksemalar, xususan, ijtimoiy-siyosiy terminlar ikkinchi tilga qabul qilinmasligi va unga shu tilning o'zidan muqobil termin tanlanishi yoxud qalbakilashtirilib yangi termin hosil qilinishi mumkin. Buning natijasida o'zaro farqli leksik qatlam yuzaga keladi. Shu bilan birga, qiyoslanayotgan tillarga boshqa tillarda mavjud bo'lgan qator ijtimoiy-siyosiy terminlar aynan o'zlashtirilishi mumkinki, bular mushtarak leksik qatlamni yuzaga keltiradi.

Qiyoslanayotgan tillarda o'zlashma qatlamning aniq miqdori haqida bir narsa deyish qiyin, albatta. Lekin har ikkala tilda ham o'zlashma terminlarning miqdori talaygina. O'zbek tilida arabcha va fors-tojikcha terminlar nisbatan ko'p uchrasa, qoraqalpoq tilida rus tilidan o'tgan terminlar ko'p uchraydi.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek va qoraqalpoq tillari terminologik sistemalarida, shu jumladan, ijtimoiy-siyosiy terminologiyasida keyingi yillar ichida sezilarli o'zgarishlar ro'y berdi. Bu tillarga Davlat tili maqomining berilishi, Respublikamizning mustaqillikka erishganligi bilan bog'liq bo'lsa, qolaversa, milliy qadriyatlarning tiklanishi, millat tilining sofligi uchun jon kuydirilishi kabi obyektiv va subyektiv omillarning maydonga kelishi bilan bog'liq.

Adabiyotlar

1. Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. –Toshkent, 2008.
2. Abdinazimov Sh. Leksicheskiy sostav eposa «Kirk kiz» («Sorok devushek»): Avtoref.dis. ...kand.filol.nauk. -Nukus, 1992.
3. Akobirov S. Til va terminologiya. –Toshkent, 1968.
4. Bazarova D.X. Sharipova K.A. Razvitie leksiki tyurkskix yazikov Sredney Azii i Kazaxstana. –Tashkent: Fan, 1990.
5. Baskakov N.A. Sostav leksiki karakalpanskogo yazika i struktura slova // Issledovanie po sravnitel'noy grammatike tyurkskix yazikov. Ch. IV. Leksika. -M., 1962.
6. Baskakov N.A. Baskakov A.N. Sovremennye kipchakskie yaziki. – Nukus: Karakalpakstan, 1987.
7. Bafojev B. Navoiy asarlari leksikasi. –Toshkent: Fan, 1983.
8. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent, 1985.
9. Bekbaev O. Mambetnazarov Q. Qaharmanliq dastanlaridagi o'zlestirme so'zlarining tusini. – No'kis: Bilim, 1992.
10. Berdimuratov E., Kamalov A. Ja'miyetlik siyosiy ham sotsialliq ekonomikalik terminlarining orissha-qaraqalpaqsha qisqasha so'zligi. -No'kis: Qaraqalpaqstan, 1993.
11. Berdimuratov E. Ha'zirgi qaraqalpaq tilining leksikologiyasi.- No'kis: Qaraqalpaqstan, 1966.
12. Berdimuratov E. O terminologii karakalpanskogo yazika // Tyurkskaya leksikologiya i leksikografiya. –M., 1971.
13. Berdimuratov E. Qaraqalpaq terminologiyasi.-No'kis: Qaraqalpaqstan, 1989.
14. Dadabayev X.A. Obshestvenno-politicheskaya i sotsialno-ekonomicheskaya terminologiya v tyurkoyazichnix pismennix

- pamyatnikax XI-XIV vv. -Tashkent: Yozuvchi, 1991.
15. Djaksibaev A.D. Problemi vzaimodeystviya russkogo yazika s karakalpakskom natsionalnym literaturnym yazikom. -Nukus, 1980.
 16. Ijtimoiy-siyosiy terminlar lug`ati. -Toshkent: Fan, 1976.
 17. Ismoilov I. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari. – Toshkent, 1966.
 18. Ismoilov I., Meliyev K., Saparov M. O`rta Osiyo va Qozog`iston turkiy tillari leksikasidan tadqiqot, -Toshkent: Fan, 1990.
 19. Karakalpaksko-russkiy slovar. –M.: GIS, 1958, 2010.
 20. Karimov B. Mutalov Sh. O`rtaturk tili. -Toshkent: Mehnat, 1992.
 21. Koshanov K.M. Vzaimodeystvie russkogo i karakalpakskogo yaziko v oblasti nominativnoy leksike. –Nukus, 1989.
 22. Musayev K.M. Leksikologiya tyurkskix yazikov. – M.: 1984.
 23. Pirniyazova A.K. Puti formirovaniya i razvitiya obshestvenno-politicheskoy leksiki v sovremennom karakalpakskom yazike: Avtoref.dis. ...kand.filol.nauk. –Tashkent, 1986.
 25. Seitova D.U., Pirniyazova A.K., Fayzullayeva E.M. Anglishansha-qaraqalpaqsha jamiyetlik-siyasiy atamalar so`zligi. –No`kis, 1992.
 26. ShamshetovJ. Qaraqalpaq tiline shig`is tillerinen kirgen so`zler tariyxinan . –No`kis : Qaraqalpaqstan, 1984.
 27. O`zbek tili leksikologiyasi . – Tashkent: Fan. 1981.
 28. O`zbekiston Respulikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O`zbekiston, 1992.
 29. Qaraqalpaqstan Respublikasi Konstitutsiyasi. –No`kis, 1993.